

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



B MARKETING E INNOVATSIYA D I BIZNES S RAQAMLI MARKETING V D ELEKTRON TIJORAT

№2-SON

2025-YIL, FEVRAL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Elektron nashr 609 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-fevralda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi



MUNDARIJA

AHOLI O'RTASIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI	7
Nazarova Ra'no Rustamovna	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY	17
Nazarova Rano Rustamovna, Jamolov Bejan Xurshidovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	26
Karrieva Yakutjan Karimovna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI HUDUDIY STATISTIK GURUHLASH	33
Akbarova Barno Shuxratovna	
KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI: RAQAMLI MARKETING VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH USULLARI ..	40
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
JIZZAX VILOYATI FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINING STATISTIK TADQIQI	47
Ayubjonov Abbas Xosilovich, Ratayev Faxriddin Irismatovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	58
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o'g'li	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA YO'NALTIRILGAN OILAVIY TADBIRKORLIKDA INSON IMKONIYATLARIGA YONDASHUVI	65
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARINING O'RNI VA IQTISODIY FAOLIYATINING STATISTIK TAHLILI	75
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
NEYROMARKETINGNING ZAMONAVIY REKLAMA STRATEGIYALARIGA TA'SIRI	86
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ HO'JALIK MAHSULOTALARI ISHLAB CHIQRISHNING AHAMIYATI	97
Masharipova Fazilat Axmedovna	
THE IMPORTANCE OF BENCHMARKING IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF MANUFACTURING ENTERPRISES.....	106
Musayeva Shoirazimovna	
KORXONALARNING FAOLIYATIDA DAROMAD VA XARAJAT HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Muxibova Guli Yarkinovna, Turabekova Ominaxon Ulug'bek qizi	
TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	119
Sapayev Axmed Durdibaevich	
"UNIVERSITET 4.0" MODEL: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA UNIVERSITETLARNING RAQAMLI MARKETING YONDASHUVI	127
Xidoyatov Murod Batirovich	
TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVLARI.....	139
Yusupova Mexribon Uktamovna	
MINTAQADA TRANSPORT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TADQIQI.....	148
Sapayev Axmed Durdibayevich	
O'ZBEKISTONDA YUK VA YO'LOVCHI TASHISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	154
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	

BANK XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALARINING ROLI.....	162
Azimova Nasiba Shuxratovna	
KORXONALAR FAOLIYATIDA MEHNAT INTIZOMINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI.....	170
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDA MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO’LLARI.....	176
Davlatov Muradbek Saparboyevich	
SIX MAIN STAGES OF THE SUPPLY PROCESS.....	183
Ergashev Jahongir Bakhodirovich	
O’ZBEKISTONDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	195
Igamova Shaxinya Zikrilloevna	
XALQARO SAYYOHLIK BOZORIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB TENDENSIYALARI.....	202
Kasimova Zilola G’ulomiddinovna	
KORXONA IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	210
Qodirov Abduvoxid Abdumannof o’g’li	
O’ZBEKISTONDA TUROPERATORLAR FAOLIYATIDA MARKETINGNI TAKOMILLASHTIRISH	220
Qutlimurotov Fayzullo Sadulayevich	
INNOVATION MENEJMENT TAMOIYILLARI ASOSIDA KORXONALARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	229
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
THE IMPORTANCE OF OPERATING EXPENSES IN MANAGEMENT COSTS	237
Turdieva Gulaida Omirbayevna, Maulenberganova Khusnida Khursand qizi	
ILM-FAN SOHASIDA BOZOR MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI.....	247
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING KOMPANIYA KAPITAL QIYMATIGA TA’SIRI	255
Urinov Bobur Nasilloevich	
O’ZBEKISTONDA MEHMONXONA XO’JALIGI MILLIY TASNIFLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI.....	263
Xamitov Mubin Xabibjonovich	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINING KO’ZI OJIZLARNING INTELLEKTUAL FAOLIYATIDAGI O’RNI	276
Mannopova Manzura Jamil qizi	
HUDUDLARDA ENERGIYA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	284
Safarov Akbar Shokirovich	
TO’QIMACHILIK KLASSTERLARIGA SINERGIYANING TA’SIRI VA UNING ELEMENTLARI	291
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИЯМИ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ	302
Абдурахманов Зафар Мамурович	
ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	311
Карабаева Гулнора Шарафитдиновна,	

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В КИТАЕ .320	
Медынская Ирина Вильевна	
MODA INDUSTRIYASIDA NEYROMARKETINGDAN FOYDALANISH339	
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
KORXONALARNING EKSPORT SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH346	
Jiyamuradov Rustam Nuriddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BIZNES MODELLARINING SHAKLLANISHI351	
Saatova Lolakhon Ergashevna	
MODA INDUSTRIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI359	
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
OLIY TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH367	
Berdiyev Temurbek Maxmudullo o'g'li	
MINTAQALARDA KLASSTERLARNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH376	
Beknazarova Manzura Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARIDA BRENDNI MILLIY AN'ANALARGA MOS RAVISHDA SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI383	
Babaxodjayev Giyosiddin Nasirovich	
THE ROLE OF PROGRAMMATIC ADVERTISING IN DATA-DRIVEN MARKETING: OPTIMIZING TARGETED ADVERTISING STRATEGIES IN THE TOURISM SECTOR392	
Sodikov Mirziyo Odiljon ogli	
UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH, QAYTA QURISH ISHLARIGA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MABLAG'LARINI JALB QILISH400	
Pardayev Fayzulla G'affarovich	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА407	
Гафурова Дилшода Рамазановна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARI: IJTIMOY MEDIA MARKETINGDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI414	
Xamidov Obidjon Xafizovich	
Baxtiyorova Nigina Ulug'bek qizi	
KOMPANIYALAR KAPITAL AKTIVLARINI BAHOLASHNING NAZARIY JIHATLARI423	
Bunyod Usmonov Aktam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР427	
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
ИГРЫ И ИГРОВЫЕ ЗАНЯТИЯ ПО ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ433	
Фозилова Фирангиза Комиловна	
BILIMLAR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI440	
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI448	
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI458	
Sodiqova Dilafruz Zohid qizi	

O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLİYANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA STRATEGIK YO'NALISHLARNI ANIQLASH	467
Masharipova Shahlo Adambaevna	
MOBIL ALOQA TARMOQLARINING DUNYO IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	478
Dilafroz Aripova	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHNING TASHKILIY MOLİYAVIY MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	489
Naziraliyev Diyorbek Imomali o'g'li	
SUG'URTA KOMPANIYALAR MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH USULLARI	500
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
AGROKLASTER TIZIMIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI VA ULARNI QO'LLASH STRATEGIYALARI.....	509
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	517
Raximov Anvar Norimovich	
MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	527
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
MUHANDISLIK TA'LIM SOHALARI TALABALARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL.	536
Butayev Tuxtasin	
O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ASOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	543
Abdusattorov Sarvar Shokirovich	
АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СЕТИ МЕТОДАМИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ.....	552
Алланиязова Айсапа Муратовна	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	564
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	572
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA IFLOSLANISHINI BAHOLASH VA BARQARORLIOKNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	584
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
MOLIYAVIY XAVFLAR TASNIFINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	591
Jabborov Azamat	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR INNOVATSION BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH TAJRIBALARI.....	596
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
IQTISODIYOTNING TARKIBIY O'ZGARISHLARINI KICHIK BIZNES TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDAGI ROLINI BAHOLASH MASALALARI	602
Elov Olimdjon Komilovich	

KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN OILAVIY TADBIRKORLIKDA INSON IMKONIYATLARIGA YONDASHUVI

Ernazarova Nilufar Nozimjonovna

Namangan muhandislik-qurilish instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kambag‘allik darajasini qisqartirish jarayonida oilaviy tadbirkorlikning roli va uning inson imkoniyatlarini kengaytirish konsepsiyasi doirasidagi ahamiyati ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni kamaytirish jarayoniga ta’siri chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikning samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar tizimi ishlab chiqilib, ushbu omillarning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri ilmiy nuqtai nazardan asoslanadi. Maqolada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish strategiyalarining samaradorligi baholanib, ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy va nazariy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, kambag‘allik darajasi, oilaviy korxonalar, oilaviy biznes, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, harakatlar strategiyasi, ehtiyojmand aholi.

Аннотация

В данной статье проводится научно-теоретический анализ роли семейного предпринимательства в процессе снижения уровня бедности и его значимости в рамках концепции расширения человеческих возможностей. Исследование охватывает изучение места семейного предпринимательства в экономике страны, его влияние на социально-экономическое развитие и сокращение бедности. Также разработана система факторов, направленных на повышение эффективности семейного предпринимательства, и обосновано их влияние на экономическую стабильность с научной точки зрения. В статье оценивается эффективность стратегий развития семейного предпринимательства и сокращения бедности, а также предлагаются практические и теоретические рекомендации по их дальнейшему совершенствованию.

Ключевые слова: глобализация, уровень бедности, семейные предприятия, семейный бизнес, семейное предпринимательство, малый бизнес, стратегия действий, нуждающееся население.

Abstract

This article provides a scientific-theoretical analysis of the role of family entrepreneurship in the process of reducing poverty levels and its significance within the framework of the concept of expanding human capabilities. The study examines the position of family entrepreneurship in the national economy, its impact on socio-economic development, and its influence on poverty reduction. Additionally, a system of factors aimed at increasing the efficiency of family entrepreneurship is developed, and the impact of these factors on economic stability is substantiated from a scientific perspective. The article evaluates the effectiveness of strategies for the development of

family entrepreneurship and poverty reduction, while also presenting practical and theoretical recommendations for their further improvement.

Keywords: globalization, poverty level, family enterprises, family business, family entrepreneurship, small business, action strategy, vulnerable population.

KIRISH

Iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirishda oilaviy tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan bog'liq masalalar hozirda dunyo mamlakatlari taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, hech bir mamlakat oilaviy tadbirkorlik sektorining katta hissisiz rivojlanmagan. Oilaviy tadbirkorlikning samaradorligi iqtisodiy o'sish va rivojlanish vositasi sifatida kambag'allik darajasini pasaytirishga yordam berishini isbotlash ushbu tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsaddir.

Inson qobiliyatlariga yondashuv bu tadbirkorlarning qanday resurslarga ega ekanligiga qarashdan ko'ra, kelajakdagi va amaldagi tadbirkorlarning, ularning individual shaxslarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini, ular o'zlarining shaxsiy, moddiy hamda ijtimoiy resurslari bilan nima qila olishlarini hisobga oladi. Shu sababli, moddiy resurslarning mavjudligini faqat oilaviy tadbirkorlik muvaffaqiyatining prognozi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Inson qobiliyatlari yondashuvi shundan dalolat beradiki, insonlarda shaxsning tanlash va harakat qilish erkinligiga aniq qiziqish uyg'otganligi sababli tadbirkorlik bilan shug'ullanishini, "inson nima qila oladi va natijasi nima bo'lishi mumkin?" savoliga javob berishga harakat qilishi, bu foydali bo'lishini anglatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bo'yicha xorijiy olimlardan: J. B. Sey, A. Smit, A. Marshall, Y. Shumpeter, J. Keyns, R. Xizrich, M. Piter, F. Xayek, M. Lapusta, Yu. Starostin, K. Makkonnell, S. Bryu [1–8] va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan.

Shu bilan birga, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini tadqiq etish hamda ekonometrik modellashtirish bo'yicha V. M. Vlasova, A. Raiskiy, A. Shestakov, N. Ye. Yegorova, V. M. Savchenko, V. M. Shepelov, M. A. Fedotova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan [9–15].

O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning umumiy muammolari, statistik ko'rsatkichlarini takomillashtirish hamda prognozlash masalalari bo'yicha mahalliy olimlardan: S. S. G'ulyamov, Yo. Abdullayev, B. K. G'oyibnazarov, M. R. Boltabayev, O. T. Kenjaboyev, O. Q. Rixsimboyev, A. B. Yugay, N. Q. Murodova, Z. Ya. Xudoyberdiyeva, H. P. Abulqosimov, A. A. Qulmatov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar [16–24].

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni chuqur va tizimli tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanilgan. Jumladan, tadqiqot doirasida statistik kuzatish usuli orqali dastlabki ma'lumotlar yig'ilgan va ularning ishonchligi

baholangan. Olingan ma'lumotlar statistik jamlash va guruhlash usuli yordamida tartibga keltirilib, umumiy tendensiyalar aniqlangan. Tahlil jarayonida o'rtacha miqdorlar usuli qo'llanilib, asosiy ko'rsatkichlarning umumiy xususiyatlari baholangan. Dinamika qatorlari orqali vaqt davomida ro'y berayotgan o'zgarishlar kuzatilib, tendensiyalar aniqlangan. Shuningdek, o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash uchun korrelyatsion va regression tahlil usullari qo'llanilgan. Bundan tashqari, ekonometrik modellashtirish usuli yordamida asosiy omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlil qilinib, natijalarni matematik modellar asosida ifodalashga harakat qilingan. Tadqiqot yakunida esa prognozlash usullari yordamida kelajakdagi tendensiyalarni oldindan baholash va ilmiy xulosa chiqarish amalga oshirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allikning konseptual tavsifi uning ko'p qirrali tabiati va ta'riflarining xilma-xilligi tufayli munozarali hisoblanadi. Fikrimizcha, kambag'allikni ma'lum bir muddatga moddiy resurslarning majburiy yetishmasligi yoki mahrum bo'lishi, normal faoliyatda qatnashish va odat tusiga kirgan qulayliklar hamda yashash sharoitlaridan foydalana olmaslik deb tushunish o'rinli. Kambag'allikka nisbatan bunday iqtisodiy yondashuv kambag'allikni asosan ma'lum chegaradan past bo'lgan odamlarning iste'moli va faoliyati nuqtai nazaridan tasavvur qiladigan Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon banki kabi xalqaro rivojlanish agentliklarining yondashuviga mos keladi. Jahon bankining kengaytirilgan ta'rifi [25] kambag'allikni ko'p o'lchovli tushuncha sifatida ko'rib chiqadi, uning ma'nosi, sabablari va ahamiyati jinsi, yoshi, madaniyati va boshqa ijtimoiy hamda iqtisodiy kontekstlarga qarab farqlanadi.

Xususan, Gananing qishloq va shaharlarida erkaklar kambag'allikni moddiy boyliklarning yetishmasligi bilan bog'laydilar, ayollar esa uni oziq-ovqat xavfsizligi sifatida belgilaydilar [26]. Mamlakatimizda esa kambag'allikni aholi, jumladan, ayollar va erkaklar, asosan, ishsizlik oqibati sifatida qabul qiladi. Shu sababli hukumat tomonidan aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida 2020-yilda "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni [27] qabul qilindi.

Ushbu qonunning 12-moddasida mahalliy ijro hokimiyati organlarining aholi bandligi sohasidagi vakolatlari quyidagicha belgilab berilgan: ish o'rinlari tashkil etilishini va aholi bandligining o'sishini rag'batlantirish, ishsizlik darajasini qisqartirish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; yangi ish o'rinlari tashkil etilishini rag'batlantirish bo'yicha hududiy jamg'armalar faoliyatini boshqarish, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklarida kredit liniyalarini ochish choralari ko'rish; aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkilotlarni barpo etish; oilaviy tadbirkorlikni, hunarmandchilikni, tomorqa xo'jaliklaridagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishlarini va kasanachilikni rivojlantirishga ko'maklashish.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kambag'allikni tavsiflashda avlodlararo tafovutlar ham mavjud. Hozirgi kunda yoshlar daromad olish qobiliyatini eng muhim

boylilik deb bilishadi. Kambag'allik darajasini chuqurroq tushunish uchun uning tarqalishini kontekstga asoslangan holda tahlil qilish talab etiladi. Buni esa o'z navbatida, pandemiyaning tarqalishi sababli dunyo bo'ylab kambag'allik darajasining oshib ketishi bilan izohlash mumkin.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining qishloq joylarida kam daromadli ish o'rinlari, ishsizlik, yersizlik va zamonaviy qulayliklarning yetishmasligi kambag'allikning asosiy sabablaridan biridir. Iqtisodiy sharoitlar va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishga e'tibor qaratish, yangi oilaviy tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish kambag'allikni qisqartirish hamda barqaror turmush darajasini yaratishga xizmat qiluvchi moliyaviy, insoniy va jismoniy ehtiyojlarni qondirishga imkon yaratadi.

Albatta, kambag'allik ishlab chiqarishdagi kamchiliklar va cheklangan qo'llab-quvvatlash tizimlarining mavjudligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, kambag'allik uy xo'jaliklarining past mahsuldorligi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi hamda tadbirkorlik uchun boshqa iqtisodiy va ijtimoiy rag'batlarning yetishmasligi oqibatida yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasida grantlar va subsidiyalar berish, yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish markazlarini yaratish va "Yoshlar ishlari agentligi"[28] faoliyati orqali yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko'nikmalarini puxta egallashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash jarayonlariga ko'maklashish orqali kambag'allik darajasini qisqartirishga qaratilgan ko'plab siyosiy tashabbuslar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hali ham kambag'allik darajasi saqlanib qolmoqda.

Bu esa hukumatning kambag'allikka qarshi tashabbuslarni asosiy yo'nalishda qo'llashi, kambag'allikni qisqartirishni rejalashtirish, davlat dasturlarini keng ko'lamda amalga oshirish va byudjetni qo'llab-quvvatlash siyosati keng qamrovli ma'lumotlarga zid kelayotganligini tasdiqlamoqda. Shunday qilib, intellektual imkoniyatlarning pastligi, tadbirkorlik imkoniyatlarining yoki korxonalarining tadbirkorlik yo'nalishining cheklanganligini hisobga olgan holda, yangi tadbirkorlik boshlovchilarni moliyalashtirishni ta'minlashga urg'u beradigan ta'minot tomonidagi yondashuvlar bu qiyosiy yondashuvni inkor etayotganga o'xshaydi.

Shunday qilib, kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan oilaviy tadbirkorlik korxonalarining rivojlanishi bozordagi bo'shliqlardan optimal foydalanish, mahsulot va xizmatlarni keng miqyosda ishlab chiqarish hamda tashkiliy innovatsiyalarni amalga oshirish orqali oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish yo'nalishiga o'tish qobiliyatiga bog'liq. Oilaviy tadbirkorlik tovarlar yoki xizmatlarni taqdim etishda mavjud bozor bo'shliqlarini yopish va kapital hajmi, foydasi hamda ishchilar soni bo'yicha korxonani kengaytirish uchun innovatsiyalar bilan shug'ullanishni talab qilsa-da, oilaviy tadbirkorlik egalari bu masalalarni har doim ham e'tiborga olmaydilar.

Bunday uzoqni ko'ra olmaslik ko'pchilik oilaviy tadbirkorlik korxonalarining zaruriyati va albatta, kelgusi istiqbolli yo'nalishining natijasidir. Shunday qilib,

ko'pchilik oilaviy tadbirkorlik korxonalari ish bilan ta'minlash va atrofdagi jamoalarga hayotni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini yaratish orqali kambag'allikni keskin qisqartirish qobiliyatiga ega bo'lmashligi mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlar daromad keltiradigan ishlarni boshlash va daromad olishning o'ziga xos risklarini o'z zimmalariga olishlari uchun ijodiy hamda innovatsion ko'nikmalarni talab qiladi.

Shunday qilib, kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan oilaviy tadbirkorlik korxonalari munosib ish o'rinlarini yaratish, odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularning atrofidagi jamoalarni stressli kambag'allik holatlaridan chiqarish uchun kuchli ijodkorlik va innovatsion yo'nalishga ega bo'lishi kerak.

Oilaviy tadbirkorlik imkoniyatlarini tan olish, ijodkorlik va foydani optimallashtirish bilan aholini band qilish hamda iqtisodiy risklarni o'z zimmasiga olish kambag'allikni qisqartirish uchun eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Bu qisman kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy imkoniyatlarini va salohiyatini oshirishni o'z ichiga olgan bandlikni ta'minlash hamda daromadni oshirishga bog'liq. Oilaviy tadbirkorlik marginal foyda va odatdagidek yondashuvlardan mamnun bo'lgan kichik biznesga qaraganda nisbatan ko'proq tavakkal qilishlari va innovatsiyalarga ko'proq e'tibor qaratishlari talab etiladi.

Tadbirkorlikka yo'naltirilganlik, garchi oilaviy tadbirkorlik mahsuloti bo'lishi mumkin bo'lsa-da, barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ham kuchli tadbirkorlik yo'nalishiga ega emas. Tadbirkorlikka yo'naltirilganlik tabiatan oilaviy tadbirkorlik darajasiga ishora qiladi.

Kuchli tadbirkorlikka yo'naltirilgan oilaviy tadbirkorlik tavakkalchilik, faollik, innovatsiya, raqobatbardosh tajovuzkorlik va avtonomiya kabi beshta asosiy xususiyatni namoyon etadi. Ushbu besh atributning har birini aniqlash mumkin bo'lsa-da, tadqiqotlar tadbirkorlikka yo'naltirilganlikni faoliyat sohasidan qat'i nazar, biznes samaradorligiga katta hissa qo'shuvchi omil sifatida keltirish mumkin.

Tadbirkorlikka yo'naltirilgan oilaviy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash orqali kambag'allikni subsidiyalashda muhim rol o'ynashi mumkin.

Tadbirkorlikka yo'naltirilganlik iqtisodiyotda ko'pincha o'sish, raqobatbardosh ustunlik va yuqori samaradorlikning asosi sifatida qabul qilinadi. Tadbirkorlikka yo'naltirilganlik oilaviy tadbirkorlik egalari o'z bizneslarining tashkiliy maqsadlarini amalga oshirish, o'z qarashlarini saqlab qolish va raqobatbardosh ustunliklarni yaratish uchun foydalanadigan tadbirkorlik strategiyasini ishlab chiqish jarayonini aks ettiradi.

Tadbirkorlikka yo'naltirilganlik oilaviy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini yaratishda muhim rol o'ynaganligi sababli uning ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish, daromad yaratish, shaxsiy ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish hamda insonlar hayotini yaxshilaydigan boshqa ehtiyojlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish xususiyatiga ega. Shu sababga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, yoshlar va xotin-qizlar tashabbuslarini keng miqyosda moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [29] qaror

kambag'allik darajasini sezilarli darajada qisqartirishi mumkin. Bunday tadbirkorlikka yo'naltirilgan qarorlar va harakatlar uchun asos bo'ladigan siyosat hamda amaliyotlarning ta'siri kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes va tadbirkorlikka yo'naltirilganlik o'rtasidagi oldindan aytilgan bog'liqlikni hisobga olgan holda, tadbirkorlikka yo'naltirilgan oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanish mantiqan to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, tadbirkorlikka yo'naltirilgan kichik korxonalar bozor takliflarini jonlantirish uchun innovatsiyalarga tayyor bo'lib, yangi mahsulot va xizmatlarni sinab ko'rish orqali tavakkal qiladilar. Olib borilgan tadqiqotlar tadbirkorlikka yo'naltirilgan oilaviy tadbirkorlikni oila daromadini ko'paytiruvchi subyekt sifatida ko'rsatsa-da, ularning xodimlarining boshqaruv va moliyaviy imkoniyatlarini oshirish hamda muayyan identifikatorlarni qabul qilish orqali ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirish bunday korxonalar uchun qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar yaratishi mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikka yo'naltirilgan korxonalarning tabiatini o'rganganimiz sababli oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish orqali daromadni oshirish va bandlikni ta'minlash imkoniyatlarini yaratish kambag'allikni qisqartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Haqiqiy tadbirkorlik yangi bozorlar, yangi sanoatlar, yangi texnologiyalar, yangi institutsional shakllar, real samaradorlikning oshishi va kambag'al odamlarning daromad olish hamda hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun barqaror ish o'rinlarini yaratish orqali ijtimoiy boylikka hissa qo'shishi lozim. Shuning uchun tadbirkorlik va kambag'allikni qisqartirish o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri keladi, ya'ni tadbirkorlikning o'sishi kambag'allik darajasini pasaytirishi lozim. Shu bilan birga, yaratilgan bandlik imkoniyatlarining barqaror bo'lishi, aholi turmush farovonligini yaxshilash uchun iqtisodiy imkoniyatlarni ta'minlashi va odamlarning o'z-o'ziga ishonchini mustahkamlashi kerak.

Iqtisodiy o'sish kambag'allikni qisqartirishning muhim sharti bo'lib, kambag'allikni qisqartirish aholining turmush darajasini oshiradigan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni yaxshilash hamda qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Oilaviy tadbirkorlik egalari uchun cheklangan resurslarni boshqarish bo'yicha ta'lim berish, risklarni boshqarishni hisobga olgan holda asosli biznes-rejalarni ishlab chiqishga o'rgatish muhimdir. Fikrimizcha, hukumat tadbirkorlikni shaxsiy salohiyatni rivojlantirish va malaka oshirish bilan bog'liq talablarga asoslangan aralashuvlar bilan birgalikda ko'rib chiqsa, bu nafaqat tadbirkorlar, balki oilaviy tadbirkorlik korxonalari faoliyat yuritayotgan kengroq ijtimoiy hamjamiyat uchun ham foydali bo'ladi.

Firmalarning raqobatbardosh ustunligi ko'p jihatdan ularning tashkiliy va boshqaruv jarayonlarining sifati hamda samaradorligiga bog'liq bo'lganligi sababli hukumat oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida boshqaruv ko'nikmalari va bilimlarining ahamiyatini qanday oshirishni ko'rib chiqishi, oilaviy tadbirkorlar uchun kompleks ta'lim va kurslarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashi lozim. Bu kichik biznesning o'zini o'zi barqaror va raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi.


Ta'limning turli shakllari tadbirkorlik faoliyatida turlicha ta'sir ko'rsatadi. Xususan, marketing bo'yicha treningdan o'tgan oilaviy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmini va bandlik darajasini oshirish orqali samaradorlik ko'rsatkichlariga erishadilar. Moliyaviy ta'lim olgan oilaviy tadbirkorlik egalari esa samaradorlikni oshirish maqsadida xarajatlarni qisqartirishga ko'proq e'tibor qaratadilar. Shu sababli, agar maqsad bandlikni yaratish bo'lsa, bu kambag'allikni qisqartirishga ko'proq ta'sir ko'rsatishi aniq, va agar asosiy e'tibor rentabellikka qaratilsa, ikkalasi ham muhim bo'lishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, oilaviy tadbirkorlik egalari bilimini mustahkamlash uchun marketing va moliyaviy ta'limni birgalikda o'qitish zarur.

Kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan oilaviy tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritishi uchun davlat muassasalari tomonidan barqaror moliyalashtirish va oilaviy tadbirkorlik egalari malakasini oshirish muhim, ammo bu tadbirkorlikning rivojlanishi va barqaror rentabelligi uchun yetarli emas. Barqaror intellektual va moliyaviy resurslarni ta'minlash biznes va makroiqtisodiy kontekstda amalga oshirilishi lozim.

Ijtimoiy konversiya ishtirokchilari oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va faoliyat yuritishda tadbirkorlik egasining o'z-o'zini samarali boshqarish qobiliyatini hamda ichki nazorat tizimini shakllantirsa-da, milliy tadbirkorlik madaniyati va biznesni moliyalashtirish siyosati kabi ekologik konversiya omillari kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan korxonalar uchun kengroq muhitni ta'minlaydi. O'z mablag'laridan foydalanish imkoniyati oilaviy tadbirkorlik egalarini ko'proq tavakkal qilish va faolroq bo'lishga undashi mumkin, chunki ularda buning uchun yetarli moliyaviy resurslar mavjud.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, taqdim etilayotgan kambag'allikni qisqartirishga asoslangan tadbirkorlikka yo'naltirilganlik yondashuv mexanizmi resurslar, xususan, boshqaruv ko'nikmalariga davlat aralashuvi orqali muvozanatni ta'minlashi mumkin. Bir tomondan, konversiya omillari, ikkinchi tomondan esa funksiyalar va imkoniyatlar o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirish mumkin bo'lsa-da, natija o'zgaruvchilari, ya'ni oilaviy tadbirkorlikning rentabelligi kabi tadbirkorlik rivojlanishidan oldingi funksiyalar va bandlik imkoniyatlari kambag'allikni qisqartirishda asosiy omillardan hisoblanadi. Umuman olganda, taklif etilgan mexanizmda belgilangan vazifalar qobiliyat, tovarlar va muayyan natijalarga erishishga imkon beradigan sharoitlarning funksiyasidir.

Funksiyalar tadbirkor, novator, ixtirochi, ijodiy va tashabbuskor bo'lish kabi tadbirkorlik yo'nalishlarini asoslaydi. Ushbu jihatlar tashabbuskorlik, innovatsiya, ijodkorlik va faollik kabi omillar bilan ijobiy bog'liq bo'lib, ular ko'pincha biznesni tijoratlashtirish hamda korxonalarning kuchli boshqaruv yondashuvlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ko'nikmalarni rivojlantirish konversiya omillari, oilaviy tadbirkorlikning rentabelligi hamda bandlikning o'sishi o'rtasidagi munosabatlarda muvozanatlashtiruvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin. Biroq, turli xil boshqaruv qobiliyatlari va ko'nikmalari turli tadbirkorlik subyektlari uchun dolzarb ekanligini tushunish muhimdir.



1-rasm. Kambag'allikni qisqartirishga asoslangan tadbirkorlikka yo'naltirilganlik yondashuv mexanizmi¹

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan mahsulot va xizmatlar bozorini boshqarish qobiliyatlari hamda innovatsiyalarni boshqarish qobiliyatlari yuqori darajada o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki ular biznesning o'sishi, rentabelligi va, natijada, kambag'allikni kamaytirish uchun muhim bo'lgan ish o'rinlarini yaratish hamda daromad olishning ajralmas qismidir. Shu sababli, turli boshqaruv qobiliyatlarining ahamiyati biznesning yo'nalishi va faoliyat yuritadigan sektoriga qarab o'zgaradi.

Xususan, Namangan viloyatida rivojlanayotgan uy turizmiga yo'naltirilgan oilaviy tadbirkorlik subyektlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikning ichki

¹ Muallif ishlanmasi

tarmoq, ijtimoiy kapital tarmoqlari darajasidagi imkoniyatlari va tashqi tarmoq, innovatsiyalar kabi bozor darajasidagi imkoniyatlari oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi hamda rentabelligi bilan sezilarli va ijobiy bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sey J.B. Traktaty politicheskoy ekonomii. – M.: Ekonomika, 1985. – 55 s.
2. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinakh bogatstva narodov. T.1. – M.: Os’, 1977. – 480 s.
3. Marshall A. Printsipy politicheskoy ekonomii. T.1. – M.: Progress, 1993. – 415 s.
4. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Progress, 1985. – 159 s.
5. Keynes J. Obshchaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. – M.: Ekonomika, 1948. – S. 238-241.
6. Xizrich R., Piters M. Predprinimatelstvo ili kak zvesti sobstvennoe delo i dobitya uspeha. – M.: Progress, 1991. – 223 s.
7. Xayek F. Doroga k rassvetu. – M.: Ekonomika, 1992. – 91 s.
8. Lapusta M.G., Starostin Yu.L. Maloye predprinimatelstvo. – M.: Infra-M, 1997. – S. 87.
9. Makkonell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks. V 2-x t. T.1. – M., 2003. – 399 s.
10. Vlasova V.M. Osnovy predprinimatelskoy deyatelnosti. – M.: Finansy i statistika, 1996. – 106 s.
11. Raikiy A. Ekonomika predpriyatiya. – M.: Marketing, 2000. – 696 s.
12. Shestakov A. Predprinimatelskaya deyatelnost. – M., 2000. – 263 s.
13. Yegorova N.Ye. Modelirovanie deyatelnosti malogo predpriyatiya. // Ekonomika i matematicheskiye modeli. Tom 35, №2, 1999. – S. 67-69.
14. Savchenko V.M. Fenomeny predprinimatelstva. // Ros. ekonomicheskii zhurnal. – M., 2006. №9. – 46 s.
15. Shepelov V.M. Ocherki teorii i praktiki razvitiya predprinimatelstva. – T.: Fan, 1998. – 177 s.
16. Fedotova M.A. Dokhody predprinimatelstva. – M., 1993. – 235 s.
17. G‘ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: 2008. – 365 b.
18. Abdullayev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: Mehnat, 2010. – 349 b.
19. G‘oyibnazarov B.K., Boltaboyev M.R. va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik: O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 275 b.
20. Kenjaboyev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. Iqt. fan. dokt. diss. avtoref. – T.: 2005. – 39 b.
21. Rixsimboev O.Q. O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznesning ustuvor yo‘nalishlarini ekonometrik bashoratlash. Iqt. fan. nomz. diss. avtoref. – T.: 2002. – 22 b.
22. Yugay A.B. Modelirovanie protsessov upravleniya razvitiem proizvodstva predpriyatiy malogo biznesa. Iqt. fan. nomz. diss. avtoref. – T.: 2004. – 22 b.

23. Murodova N.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. diss. avtoref. – T.: 2016. – 74 b.

24. Xudoyberdiyev Z.Ya. va boshqalar. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: ILMZIYO, 2016.

25. Abulqosimov H.P., Qulmatov A.A. O‘zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llari. Monografiya. – T.: Universitet, 2015. – 126 b.

26. The World Bank. 2014. “Ending Poverty and Sharing Prosperity.” Global Monitoring Report 2014/2015.

27. Boateng, G. O., Boateng, A. A., Bampoe, H. S. 2015. “Microfinance and Poverty Reduction in Ghana: Evidence from Policy Beneficiaries.” Review of Business and Finance Studies 6 (1): 99–108.

28. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabr O‘RQ-642-son "Aholi bandligi to‘g‘risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5055690>

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentyabr 550-son “Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6638940>

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-mart PQ-5041-son “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5345627>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**